

07.00.00 – TARIX FANLARI

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA BUXORO ME'MORIY OBIDALARI TA'MIROTIDAGI MUAMMOLAR

Abdullaeva Dilfuza Abdujalilovna

Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edires.2024.04.2.006>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro me'moriy obidalarining ta'mirlanish tarixidagi muammolar, mas'ul muassasa va tashkilotlar shuningdek, soha xodimlari faoliyatidagi kamchiliklarning yodgorliklar muhofazasidagi ta'siri yoritilgan. Tarixiy yodgorliklardan voz kechish siyosatining Buxoro obidalaridagi ko'rinishi va bu bilan bog'liq jarayonlar birlamchi arxiv manbalarining tahlili asosida aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: Buxkomstaris, ekspluatatsiya, arxitektura, restavratsiya, deformatsiya, ijador, maqbara, masjid, peshtoq, xonaqoh.

ПРОБЛЕМЫ РЕСТАВРАЦИИ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ БУХАРЫ ПЕРИОД СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

Абдуллаева Дилфузা Абдужалиловна,

Преподаватель кафедры археологии и истории Бухары, Бухарского
государственного университета

Аннотация: В данной статье рассмотрены проблемы истории реставрации памятников архитектуры Бухары во второй половине XX века, влияние недостатков в деятельности ответственных учреждений и организаций, а также работников отрасли на охрану памятников. Так же на основе анализа первичных архивных источников отражены появление политики отказа от исторических памятников Бухары и связанные с этим процессы.

Ключевые слова: Бухкомстарис, эксплуатация, архитектура, реставрация, деформация, арендатор, мавзолей, мечеть, пештак, ханака.

PROBLEMS OF REPAIR OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF BUKHARA DURING THE SOVIET PERIOD

Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna,

Teacher at the Department of Archaeology and History of Bukhara, Bukhara State
University

Abstract: This article examines the problems of the history of restoration of architectural monuments of Bukhara in the second half of the 20th century, the impact of deficiencies in the activities of responsible institutions and organizations, as well as industry workers on the protection of monuments. Also, based on the analysis of primary archival sources, the emergence of the policy of abandoning historical monuments of Bukhara and related processes are reflected

Keywords: Bukhkomstaris, operation, architecture, restoration, deformation, tenant, mausoleum, mosque, peshtak, khanaka.

Kirish. Buxoro me'moriy yodgorliklarini muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari XX asrning 20 yillarida tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, mavjud ma'lumotlar mazkur davrda sohada bir qadar muammoli holatlar yuz berganligini ko'rsatmoqda. Muzey

ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Turkiston qo'mitasi (Turkkomstaris), keyinchalik O'rta Osiyo qo'mitasi (Sredkomstaris) hamda O'zbekiston osori atiqalarini ilmiy tekshirish hamda saqlash qo'mitasi (O'zozoratqo'm yoki Uzkomstaris) kabi maxsus muassasa va tashkilotlar, qolaversa, Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash tarixida muhim ahamiyat kasb etgan muassasa – Buxkomstaris faoliyatiga doir hujjatlar ham buni tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Sovet hokimiyati davrida Buxoro me'moriy obidalari ta'miroti tarixidagi muammolar etarlicha tadqiq etilib, ilmiy muomalaga kiritilmagan. Shu sababli, mavzuni tadqiq etishda arxiv manbalari fondida saqlanayotgan hujjatlar asosiy manba vazifasini bajardi. Mazkur maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy va siyosiy tahlil, xronologik izchillik tamoyillari asosida yoritilgan.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Milliy arxivi va Buxoro viloyat davlat arxivi hujjatlaridagi ma'lumotlar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib yodgorliklardan voz kechish tendensiyasining yangicha bosqichda boshlanganligini ko'rsatadi. Mazkur davrdagi buzish ishlari 20-yillardagidan sezilarli farq qiladi. Xususan, yodgorliklar vayron qilinishidan oldin ilmiy asosda o'rganilib, o'lchov va fotofiksatsion ishlar o'tkazilganligi e'tiborga molik. O'z navbatida, buzilishlar natijasida ko'lga kiritilgan qurilish materiallari (qayroq tosh, yog'och, g'ishtlar) va me'moriy detallar tegishli tartibda dalolatnomalashtirilgan va kelgusida yodgorliklar restavratsiyasi uchun yo'naltirilgan. Xomashyolardan maqsadli foydalanish Arxitektura ishlari boshqarmasi ixtiyori va ko'rsatmasi asosida amalga oshirilar edi.

Buning yorqin misoli 1946 yil 17 oktyabrda Buxoro shahar ijroiya qo'mitasi olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari uchun Namozgoh darvozasini buzishga va uning g'ishtlarini zavod qurilishi uchun ajratish maqsadida foydalanishga ruxsat bergenligidir[1]. Ammo hududiy vakil XVI asrga daxldor bu g'ishtlar faqatgina ta'mir-restavratsiya ishlari uchun yo'naltirilishi kerakliginita'kidlaydi.

Shuningdek, Yormuhammad Otaliq xonaqohining ham 1950 yilda vayron qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Arxitektura ishlari boshqarmasi vakili A.Balayev tomonidan xonaqohning buzilishi natijasida ko'lga kiritilgan qurilish materiallari dalolatnomalashtirilib, Buxoro ta'mirlov uchastkasiga yuborilishi so'ralgan. Natijada, 1952 yilmay-iyun oylarida yodgorlikdan ajratilgan g'ishtlardan 6390 donasi uchastkaga yetkazilgan[2].

Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig'i V.A.Jahongirovning Buxoro hududiy vakili S.S.Sharipovga 1951-yil aprelda yo'llagan maktubida buzilayotgan yodgorliklarning qadimiyligini usulda pishirilgan to'rtburchak g'ishtlarini ta'mirlash faoliyati bilan bog'liq bo'limgan boshqa turdag'i qurilishlarda ishlatish man etilganligini hududiy shahar boshqaruvi va partiya rahbariyatiga yetkazish ham ta'kidlanadi. Maktubda "...Kalobod madrasasining g'ishtlari "Xolodilnik" tashkiloti tomonidan o'zlashtirilib, qurilishlarida ishlatilmoqda. Ammo, ular Mir Arab madrasasining ta'miriga yo'naltirilishi darkor..." [3] deyiladi.

Ta'kidlash joizki, XX asrning 40-50-yillariga kelib me'moriy obidalar muhofazasi va ta'miroti masalasida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi bilan munosabatlarda ham taranglashish kuzatiladi. Arxitektura ishlari boshqarmasi va hududiy vakil shuningdek, Buxoro shahar Ijroiya qo'mitasi o'rtasida olib borilgan idoralalararo yozishmalarbu davrda deyarli barcha masjidlar Diniy boshqarma tassarufiga berilganligi hisobiga ularning ta'mirlanishi masalasida sustkashlik yoki o'zboshimchaliklarga yo'l qo'yilganligini ko'rsatdi.

Masalaga doir yozishmalar orasidagi 1947 yil 5 noyabrda Arxitektura ishlari boshqarmasi tomonidan Buxoro shahar Ijroiya qo'mitasi rahbari Mirzaxo'jaev nomiga yo'llangan maktub tahlil etilganda Diniy boshqarma tassarufidagi Xo'ja Zayniddin masjidida ikki yildan buyon ijador tomonidan majburiyat bajarilmayotganligi, ya'ni ta'mirlash ishlari olib borilmaganligi ma'lum bo'ldi. Unda boshqarma vakili va masjid mas'ulini ogohlantirish shuningdek, boshqarmaga ta'mir uchun zarur mablag' smetasini yo'llash, so'ngra bu hujjatlarni Buxorodagi Ta'mirlov idorasiga topshirish kerakligi bayon etiladi. Mazkur ma'lumotlar ta'mirlash

idoralari tarixiy yodgorliklarning ekspluatatsiyasi masalasida mahalliy ijro muassasalari va Diniy boshqarma bilan muntazam qat’iy munosabatga kirishganligidan guvohlik beradi. Shu o‘rinda aynan sovet hokimiyatining islam diniga qarshi kurashi ta’siri va bu boradagi hukumat tazyiqlarini ham inobatga olish o‘rinli, fikrimizcha.

Tahlillar, tarixiy yodgorliklardan foydalangan ijaradorlar bilan XX asrning 50 yillaridamoliyaviy masalalarda kelishmovchilik (ijara haqqini to‘lamaslik yoki qisman to‘lashlik) holatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Rasmiy hujjatlar orasidagi Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig‘i A.Balayev tomonidan S.Sharipovga 1951-yil 5-aprelda yuborilgan maktubi hududiy vakil va joylardagi yodgorliklarning ijaradorlari bilan qanday tartib va shartlarga asoslanib munosabatga kirishish darkorligi keltirib o‘tilgani bilan ahamiyatli.

“...Siz ijara bilan bog‘liq shartnomalar imzolashdan bosh tortgan tashkilot haqidau qaysi vazirlikka tegishli bo‘lishiga qaramasdan Davlat Arbitrajiga murojaat qiling. Ijarador va siz o‘rtangizda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mojarolar ijara summasini belgilashdan kelib chiqadi. 1 kv m maydon uchun 75 rubldan hisoblab berishingiz belgilangan...” [4].

Shu o‘rinda yodgorliklar muhofazasiga mas’ul xodimlarning o‘z vakolat va vazifalariga e’tiborsizligini ham ta’kidlash joiz. Jumladan, Buxoro viloyat ijroqo‘m huzuridagi Arxitektura ishlari bo‘limi boshlig‘i S.G.Xmelnitskiy Poyi Kalon ansamblining maydonida Dehqon bozoriga qarashli karvonsaroyning joylashtirilgani va bu erda yog‘och arralash ishlari amalga oshirilishi sababli obyekt ta’mirtalab holatga kelganligi, yerga yotqizilgan toshlarning deformatsiyaga uchrayotgani haqida ogohlantirib, ushbu masalaga chora ko‘rishni so‘rab hududiy vakil S.Sharipovga bir necha marotaba murojaat qilgan. Hududiy vakilning ularga bergen javobi soha mutaxassisiga xos emas edi: “....Katta maydon-supra arxitektura yodgorligi hisoblanmaydi va ro‘yxatda turmaydi, demak bu mening vakolatim doirasiga kirmaydi. Shunday ekan, ushbu mas’uliyat shahar xo‘jalik qo‘mitasi bilan hal qilinishi maqsadga muvofiq..”. Qayta-qayta ta’kidlarga javoban S.Sharipov ushbu hududning Buxkomstaris hisobida bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishni so‘raydi.

Shundan so‘ng, 1951-yil 14-martda S.G.Xmelnitskiy Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig‘i V.A.Jahongirov nomiga Poyi Kalon ansamblini maydonida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish zarurligi xususida murojaat qiladi. Masala 1951-yil 27-martda boshqarmaning Mir Arab madrasasi va Masjidi Kalon oralig‘idagi maydon hududiy vakilning vakolat doirasiga kirishini bildirgachgina o‘z yechimini topgan.

O‘rganishlar, XX asr 50-yillarda hukumat tarixiy yodgorliklardan turistik resurs sifatida foydalangani, ular shu zarurat asosida ta’mirlanganini ko‘rsatdi. Qolaversa, ta’mirlash ishlari turizmni rivojlantirishning vositasi ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

1953-yil 1-yanvardan 1954-yil 18-iyunga qadar O‘zbekistonga 34 ta xorijiy davlatdan 589 nafar mehmonlarning tashrif buyurganligi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar yuqoridaqgi fikrlarni tasdiqlaydi[5]. Natijada me’moriy obidalar va ularning atrofida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, uning ijrosi respublika Ta’mirlov idorasining Buxoro uchastkasi vakillariga yuklatiladi.

Mazkur yillarda davlat ro‘yxatiga kiritilgan Buxoro hududidagi 38 ta madaniy meros obyektidan to‘rttasi budget hisobidan, ikkitasi maxsus mablag‘lardan, jami oltita yodgorlik ta’mirlangan[6]. 1954 yilga kelib yana 12 ta yodgorlikda restavratsiya ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ro‘yxatdagilardan 14 tasi kapital ta’mirga muhtoj, qolgan 12 tasi jiddiy avariya holatida bo‘lganligi xususidagi dalillar sohadagi ishlar barcha yodgorliklarni to‘liq qamrab olmaganini ko‘rsatadi.

Mamlakat turistik salohiyatini yodgorliklar vositasida oshirish 60-yillarda ham davom etganligini ta’kidlash joiz. Shu maqsadda SSSR Madaniyat vazirligi tomonidan “Madaniy yodgorliklarning muhofazasi va tashviqot ishlari bo‘yicha komissiya” tuziladi. Komissiyaning

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga 1963 yil 19-29 dekabr sanalaridagi tashrifi natijasida bergen xulosalari ham buni tasdiqlaydi.

Tashrif davomida Buxorodagi shahar devori qoldiqlari, Chashmayi Ayub, Somoniylar maqbarasi va Toqi Zargaron savdo majmuasi kabilar ko'zdan kechirilib, mavjud holat yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Ular faqatgina tashqi fasadni restavratsiya qilish, yodgorlik atrofini obodonlashtirish va ularga boradigan yo'lni asfaltlashtirish kabi tavsiyalardangina iborat bo'ldi. Bu holat shaklan yodgorliklar muhofazasiga e'tibor qaratilgandek ko'rinsa-da, mazmunan ularga "xo'jako'rsin" zaylida munosabatda bo'linganligining namunasidir.

Yodgorliklarga bo'lgan munosabat, ulardan foydalanish, ijara berish bilan bog'liq jarayonlar ham idoralar o'rtasida turli bahsli holatlarda namoyon bo'lgan. Bunda Moddiy madaniy yodgorliklarni saqlash va muzeylar boshqarmasining 1967 yil 24-25 fevralda mutaxassislar A.R. Muhammadjonov, A.A. Muzaffarov, R.N. Reyxer hamda I.YA. Patik kabilarni Buxoro moddiy madaniyat yodgorliklarining holati bo'yicha texnik ko'rikni amalga oshirish maqsadida yuborgani ahamiyatli bo'ldi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, Sayfiddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbarasi, Xalifa Xudoydod masjidi, Chor Bakr, Bahovuddin Naqshband majmuasi, Ark qal'asining devori, Abdullaxon va Mir Arab madrasalari peshtoqlarining qulash holati aniqlanadi. Shuningdek, Abdulazizixon, Ulug'bek madrasalari, Kulita karvonsaroyi va Fayzobod xonaqohi jiddiy shikast yetgan ahvolda ekanligi qayd etiladi.

Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasining 1967 yil 14 martda viloyat madaniyat bo'limi boshlig'i R.Fozilovga tarixiy yodgorliklarning ayrimlarini ijaradorlardan bo'shatish kerakligini so'rab qilgan murojaatini yuqorida tashrifning natijasi sifatida baholash mumkin. Ammo R.Fozilov ushbu masalani hal etish ba'zi bir muammolar, xususan ularning foydaluvidan kelib tushadigan ijara mablag'laridan voz kechishga olib kelishini, qolaversa, yodgorliklar ta'miri uchun davlat tomonidan ko'proq summa ajratilishini ham taqozo etishini aytadi.

Murojaatga javoban yo'llangan xatda Masjidi Kalon, Mag'oki Attor, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Abdullaxon timi, Nodir Devonbegi va Ko'kaldosh madrasalaridan yiliga jami 50.000 rubl ijara tushumi mavjudligi ham ilova qilingan. Biz ko'rib chiqqan manbalarda masala yechimiga daxldor ma'lumotlar garchi uchramasa-da, tarixiy yodgorliklarni ijaraga berish tizimi bekor qilinmagan, deb hisoblash mumkin. Buni keyingi yillarda ham ijara bilan bog'liq shartnoma hujjalarning mavjudligi tasdiqlaydi.

Xulosa. Yodgorliklar muhofazasiga javobgar tashkilot mas'ullari orasida ayrim salbiy holatlar ham uchramagan deb bo'lmaydi. Bu bevosita ta'mirlash va qayta tiklash ishlarining sifatiga ta'sir etmay qolmagan. O'tkazilgan taftish-nazorat ishlariga doir hujjalarni ta'mirlash maqsadida ajratilgan mablag'larning o'zlashtirilishi, yodgorliklar qayta tiklanishi uchun zarur qurilish materiallarini ayrim mansabdolarning shaxsiy turar joylarini qurishda ishlatilganligi, usta-me'morlarning oylik maoshlari noqonuniy o'zlashtirilishi, ularning mehnatidan shaxsiy manfaatlari uchun foydalanganlik holatlarining mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu dalillar ta'mirot sohasi ham mustabid tuzum jamiyatining salbiy illatlaridan chetda qolmaganligini tasdiqlaydi.

Foydalilanigan adabiyot va manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinnarda-O'zMA), R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 76-varaq.
2. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 382-yig'majild, 171varaq.
3. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 245-varaq.
4. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 382-yig'majild, 136-varaq.
5. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 450-yig'majild, 27-varaq.
6. O'zMA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 353-yig'majild, 57-64-varaqlar.
7. Klichev O. Scholarships of Emirs of Bukhara // Oriente moderno. – 2020. – T. 100. – №. 1. – C. 57-74.
8. Abdurasulovich, Klichev Oybek. «Legal aspects of Russian political agency in the

emirate of Bukhara (cross over review).» Austrian Journal of Humanities and Social Sciences 7-8 (2016): 7-9.

9. Klichev O.A. Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara // Europaische Fachhochschule. – 2016. – №. 8. – C. 14-15.

10. K Oybek .The Role of the Russian Political Agency in Diplomatic Relations between theEmirate of Bukhara and the Russian Empire // Oriente Moderno, 2023 Oriente Moderno. 2023. – Volume102: – Pp. 227-239 Brill. (Print Only-ISSN:0030-5472, Online – ISSN: 2213-8617.)

11. D Abdullayeva. Activities of the Society for the Preservation of Historical and Cultural Monuments of Uzbekistan // Central Asian journal of Social sciences and History. 2023. Volume 4, Issue 2. –P. 9-13. (Impact Factor: 6.0) <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/624/617>.